

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING
QARORI**

**INSON HUQUQLARI BO'YICHA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY MARKAZI FAOLIYATINING
MODDIY-TEXNIKA TA'MINOTINI YANADA YAXSHILASH TO'G'RISIDA**

Inson huquqlari sohasida ilmiy-huquqiy bazaning tizimli shakllantirilishini tashkil etish, 2021—2023-yillarda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Inson huquqlari bo'yicha kengashida O'zbekiston Respublikasining a'zoligi samarali amalga oshirilishini ta'minlash doirasida Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi faoliyatining moddiy-texnika ta'minotini yanada yaxshilash maqsadida:

1. Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi (keyingi o'rinnarda — Markaz) tuzilmasida "Demokratlashtirish va inson huquqlari" jurnali tahririyatining 6 ta shtat birligini qisqartirish hisobiga:

2 ta shtat birligidan iborat Inson huquqlari bo'yicha axborot-kutubxona markazi — "Inson huquqlari uyi" tashkil etilsin;

matbuot kotibi lavozimi negizida Matbuot xizmati tashkil etilsin va qo'shimcha 2 ta shtat birligi kiritilsin;

Inson huquqlari sohasidagi ta'lif va ma'rifat bo'limi hamda Inson huquqlari bo'yicha xalqaro hamkorlik bo'limiga qo'shimcha 1 tadan shtat birligi kiritilsin.

2. Markazga quyidagi qo'shimcha asosiy vazifalar yuklatilsin:

inson huquqlari sohasida ilmiy-huquqiy bazani tizimlashtirish, o'quv, ilmiy-uslubiy va ommabop nashrlar hamda xalqaro shartnomalarning davlat tilidagi to'plamlari doimiy chop etilishini ta'minlash;

inson huquqlarini ta'minlash sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning xronologiyasini yuritish, fuqarolar va ilmiy tadqiqotchilarga inson huquqlari bo'yicha tizimlashgan ilmiy-huquqiy manbalardan foydalanish uchun keng imkoniyatlar yaratish.

3. Yuqori kasb mahoratiga ega bo'lgan hamda Markaz faoliyati samaradorligini oshirishga katta hissa qo'shayotgan xodimlarni yanada rag'batlantirish maqsadida Adliya organlari va muassasalarini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan yillik mehnatga haq to'lash fondining 50 foizi miqdorida Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi xodimlarini moddiy rag'batlantirish maxsus fondi tashkil etilsin.

Belgilansinki, maxsus fond mablag'lari Markaz direktorining buyrug'iga binoan Markazning boshqaruv, texnik va xizmat ko'rsatuvchi xodimlariga ularning mehnatga haq to'lash fondining 100 foizigacha bo'lgan miqdorda har oylik ustamalar belgilash uchun yo'naltiriladi.

Markaz (A.X. Saidov) Adliya vazirligi (R.K. Davletov) va Moliya vazirligi (T.A. Ishmetov) bilan birgalikda ikki hafta muddatda maxsus fond mablag'lарidan foydalanish tartibi, shuningdek, Markaz xodimlariga har oylik ustamalar belgilash mezonlarini tasdiqlasin.

4. Markaz direktoriga belgilangan mehnatga haq to'lash fondidan tejab qolingan, shuningdek, tasdiqlangan shtatlar jadvalida nazarda tutilgan shtat birliklari to'ldirilmaganligi sababli bo'shab qolgan mablag'larni Markaz xodimlarini moddiy rag'batlantirishga yo'naltirish huquqi berilsin.

5. Vazirlar Mahkamasi bir oy muddatda:

Toshkent shahar, Mirobod tumani, Islom Karimov ko'chasi, 15-uy manzilida joylashgan Markaz binosining "B" korpusini rekonstruksiya qilish ishlarini tashkillashtirsin;

Markazni Inson huquqlari bo'yicha axborot-kutubxona markazi — "Inson huquqlari uyi" faoliyatini tashkil etish uchun zarur bo'lgan axborot-kutubxona dasturiy ta'minoti, multimedia mahsulotlari, mebel, kompyuter texnikasi va boshqa asbob-uskunalar bilan ta'minlash choralarini ko'rsin.

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining va O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga **ilovaga** muvofiq qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritilsin.

7. Mazkur qarorning ijrosini samarali tashkil qilishga mas'ul va shaxsiy javobgar etib Markaz direktori A.X. Saidov belgilansin.

Qaror ijrosi uchun mas'ul idoralar faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A.N. Aripov zimmasiga yuklansin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent sh.,
2022-yil 25-mart,
PQ-180-son

O'zbekiston Respublikasi
Prezidentining 2022-yil 25-martdagi
PQ-180-son **qaroriga**
ILOVA

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining va O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga kiritilayotgan qo'shimcha va o'zgartirishlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 10-dekabrdagi "Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi PQ-4056-son qarorida:

a) **2-band** quyidagi mazmundagi xatboshilar bilan to'ldirilsin:

"inson huquqlari sohasida ilmiy-huquqiy bazani tizimlashtirish, o'quv, ilmiy-uslubiy va ommabop nashrlar hamda xalqaro shartnomalarning davlat tilidagi to'plamlari doimiy chop etilishini ta'minlash;

inson huquqlarini ta'minlash sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning xronologiyasini yuritish, fuqarolar va ilmiy tadqiqotchilarga inson huquqlari bo'yicha tizimlashgan ilmiy-huquqiy manbalardan foydalanish uchun keng imkoniyatlar yaratish";

b) 7-bandning **ikkinchi xatboshisidagi** "35 nafar" so'zlari "41 nafar" so'zlari bilan almashtirilsin;

v) **8-bandda**:

beshinchi xatboshidan "va ko'p yillik xizmatlari uchun qo'shimcha haq" so'zlari chiqarib tashlansin;

oltinchi xatboshidagi "1,7" raqami "2" raqami bilan almashtirilsin;

g) **9-bandda**:

quyidagi mazmundagi uchinchi xatboshi bilan to'ldirilsin:

"belgilangan mehnatga haq to'lash fondidan tejab qolingga mablag'larni, shuningdek, tasdiqlangan shtatlar jadvalida nazarda tutilgan birliklar to'ldirilmaganligi sababli bo'shab qolgan mablag'larni Markaz xodimlarini moddiy rag'batlantirish uchun sarflash";

uchinchi xatboshi tegishinchada to'rtinchi xatboshi deb hisoblansin;

d) 1-ilova **matni** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazining TASHKILIY TUZILMASI

